

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHNING DINAMIK TAHLILI

Saburov Manas Xabibulla o‘g‘li
Chichiq davlat pedagogika universiteti talabasi
email: saburovmanas67@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi 2010-2022 yillar bo‘yicha ko‘rib chiqilgan. Agrar soha mahsulotlari joriy narxlarda ko‘rsatib o‘tilgan*

***Kalit so‘zlar:** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, qishloq xo‘jaligi, Mo‘noq tumani, Nukus tumani, dehqonchilik, chorvachilik.*

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qizilqum cholineg shimoli-g‘arbiy, Ustyurt platosining janubiy-sharqiy qismi va Amudaryo del‘tasida joylashgan. Hududining 3/1 qismini tashkil qilsa ham asosan hududi cho‘l va chalacho‘ldan zonasidan tashkil topganligi sababli qishloq xo‘jaligi mahsulot taqsimotida uning ulushi o‘rtacha ko‘rsatkichga ega.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda avvalam bor bu hududning relyefi va suv resurslarini inobatga olish kerak. Bu yerda qishloq xo‘jalik mahsulotlari o‘tacha ko‘rsatkichda rivojlangan bo‘lib shunga yarasha daromadga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi mamlakatimiz hududining 3/1 qismini tashkil qilsa asosan hududi cho‘l va chalacho‘ldan zonasidan tashkil topganligi sababli qishloq xo‘jaligi mahsulot taqsimotida uning ulushi o‘rtacha ko‘rsatkichga ega. Bu ko‘rsatkich 2010 yili -121,3% ni, 2022 yilda – 101,5% ga shundan o‘rtacha 106,3% ni tashkil qilgan bunda 12 yil mobaynida qishloq xo‘jaligi o‘sish suratlari 19,8% tushgan.

Mazkur ko‘rsatkich tumanlar doirasida har xil bo‘lib eng ko‘p miqdor 2010-yil Mo‘ynoq tumani hissasiga (206,7%), eng kam miqdor esa 2017-yil Nukus tumani hissasiga (60,8%) tog‘ri keladi. Qolaversa Chimboy, Taxtako‘pir hamda Qo‘ng‘irot tumanlari ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish yaxshiroq ta‘minlangan. Shumanay tumanida esa deyarli o‘zagarish ro‘y bermagan. Aksincha Qorao‘zak hamda Qanliko‘l tumanlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga ancha kambag‘al bu ko‘proq uning ixtisoslashuviga va joylashgan orniga bog‘liq. Qolgan tumanlarda esa o‘rtacha 1 baravarga kamayganligin kuzatish mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda avvalam bor bu hududning relyefi va suv resurslarini inobatga olish kerak bunda ko‘zda tutuloyotgan maqsad shundaki dehqonchilikda va

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındađı Respublikalıq kólemdegi ilimiy-teoriyalıq konferenciya

chorvachilikda mablag'ni tog'ri taqsimlash. Bunda xo'jaliklar shu jumladan: fermer xo'jaliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar. Bu turdagi ya'ni Barcha toifadagi xo'jaliklar jami: 106,3% ni, Uning umumiy holati tahlil qilinganda eng ko'p miqdor 2010 yilda 121,3%, eng kam ulush 2011 yilda berilgan. Umuman olganda So'ngi 13 yillikda mintaqa agrar sohasiga beriladigan qishloq xo'jaligi mahsulot miqdori 1,5 baravarga kamaygan.

1-jadval

Tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsuloti (amaldagi narxlarda, mlrd. so'm)

№	Hududlar	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2020 y.	2021 y.	2022
Qoraqalpog'iston Respublikasi		990,4	1 282,1	1 812,2	9 751,6	11 511,8	13 389,1
1	Nukus sh.	3,4	5,9	7,9	57,7	66,0	71,3
2	Amudaryo	128,5	168,9	230,8	1 801,6	2 135,2	2 527,2
3	Beruniy	129,2	175,6	225,4	1 327,3	1 535,2	1 645,4
4	Bo'zatov				161,1	192,8	223,8
5	Qorao'zak	43,9	48,2	70,0	360,1	427,5	499,3
6	Kegeyli	55,7	75,7	102,8	382,9	425,2	495,2
7	Qo'ng'iro't	37,3	49,2	97,0	511,0	607,3	686,2
8	Qonliko'l	46,6	51,0	89,1	374,4	487,2	670,5
9	Mo'ynoq	6,4	8,0	12,8	115,0	123,8	141,9
10	Nukus t.	73,5	89,1	132,3	350,8	343,2	430,0
11	Taxiatosh	5,9	7,8	9,0	237,3	288,9	332,1
12	Taxtako'pir	45,6	48,9	70,5	328,5	389,8	475,7
13	To'rtko'l	116,1	161,9	213,4	1 086,9	1 299,2	1 478,2
14	Xo'jayli	75,2	98,9	130,2	473,1	573,6	723,5
15	Chimboy	68,2	79,5	134,6	700,8	827,4	936,3
16	Shumanay	29,2	42,4	67,4	371,5	463,4	554,4
17	Ellikqal'a	125,7	171,1	219,0	1 111,6	1 326,2	1 498,1

Manba: O'zbekiston respublikasi statistika agentligi ma'lumotlari.

“GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS”

atamasındađı Respublikalıq kólemdegi ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Bunda dehqonchilik mahsulotlarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda jami ulushi 105,7%ni, chorvachilikda esa 107,0%. Umumiy holati tahlil qilinganda eng ko‘p miqdor 2010 - 2015 yillarga tog‘ri keladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hisobiga qishloq xo‘jaligidan 11 511,8 mlrd so‘m sof daromad ishlagan, eng kam foyda 2010 yilda (990,4 mlrd so‘m). Mazkur ko‘rsatkich tumanlar doirasida har xil bo‘lib eng ko‘p miqdor Amudaryo tumani hissasiga (2 135,2 mln so‘m), eng kam miqdor esa Taxiatosh hissasiga tog‘ri keladi. Qolaversa Beruniy, To‘rtko‘l hamda Ellikal‘a tumanlari ham qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan yaxshi ta‘minlangan. Aksincha Mo‘ynoq tumani hamda Nukus shahri qishloq xo‘jalik mahsulotlariga ancha kambag‘al bu ko‘proq uning ixtisoslashuviga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlari. Nukus, 2021 y.
2. Soliyev A.S. O‘zbekiston geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) – Toshkent 2014 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi yer fondi. – T.: Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, 2022 y.
4. O‘zbekiston respublikasi statistika agentligi ma‘lumotlari, 2010-2022 yy. (www.stat.uz)